

**BOSHLANG‘ICH SINFLARDA YOZMA ISHLARNI TASHKIL
QILISHDA SINTAKTIK UNSURLARDAN FOYDALANISH.**

QDPI Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi kafedrasasi o‘qituvchisi
A’zamova Shahzodaxon

QDPI talabasi Kimsanaliyeva Dilzodaxon Davlatali qizi
Annotatsiya

Ushbu maqolada yozma nutq ko‘nikmalarini shakllantirish, ijodiy yozma ishlar har bir darsning ijobiy tomonga rivojlantirish, yozma ishlar o‘quvchilardan fikrlashga, o‘ylashga o‘rgatish, gapni o‘qish, tushunish, kuzatish, nutqni o‘stirishga yordam berishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: yozma nutq, ona tili darslari, milliy pedagogika tamoyillari, IELTS, TOEFL, kadrlar tayyorlash, leksik, sintaktik, bog‘lasnishli nutq.

Аннотация

В данной статье основное внимание уделяется формированию навыков письменной речи, творческие письменные работы развивают каждый урок в положительном направлении, письменные работы направлены на то, чтобы помочь учащимся думать, мыслить, читать, понимать, наблюдать, развивать речь.

Ключевые слова: письменная речь, занятия родным языком, принципы национальной педагогики, IELTS, TOEFL, подготовка кадров, лексическая, синтаксическая, связная речь.

Annotation

This article focuses on the formation of written speech skills, creative written works to develop each lesson in a positive direction, written works are aimed at helping students to think, think, read, understand, observe, and develop speech.

Key words: written speech, native language classes, principles of national pedagogy, IELTS, TOEFL, personnel training, lexical, syntactic, connected speech.

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyevning ma`naviy-ma`rifiy masalalarga doir har bir chiqishlarida ajdodlar merosini qadrlash, ularning tafakkur mahsulidan unumli foydalanish, kitob mutoalasiga alohida e`tibor qaratish ta`kidlanadi, o`tmish

an`analar, axloqiy- ma`rifiy qarashlar bugungi yorituvchi mash`al sifatida e`tirof etiladi.

Yangi texnik vositalardan foydalanish , zamonaviy pedtexnologiyani dars jarayonida endi hech kimga yangilik emas, albatta.

Shu o`rinda, bir jihatni ta`kidlash o`rinlidir: ta`lim jarayonidagi yangi, zamonaviy usullar, pedagogik vositalatni qo`llash barobarida an`anaviy ilg`or pedagogik tajribalarni ham e`tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Yetuk mutaxassis-kadrlar tayyorlash maqsadiga qaratilgan ta`lim sifatini oshirishda zamonning eng yangi vositalari, usullari, taraqqiy etgan mamlakatalar tajribasini ommmalashtirish bilan bir qatorda milliy pedagogikaning davrga mos,ta`lim maqsadlariga muvofiq keluvchi tajribalaridan ham foydalanish maqsadga muvofiq.

Milliy pedagogikadagi asosiy tamoyillardan biri yozma nutqni shakllantirish masalasi edi. Jumladan, jadid pedagoglari yozma nutqning inson tafakkurini o`stirishga xizmat qilishini yaxshi anglagan. Shuning uchun maqolalari va darsliklarida yozma nutq ko`nikmalarini shakllantirishga ahamiyat berishgan. O`quvchilarga beriladigan matnlar, insholarning mazmuni, soddadan murakkablikligiga alohida e`tibor qaratishgan. Matnlarni o`quvchilar yoshiga qarab saralashni, bu borada boshqa mamlakatlardagi ilg`or pedagogik tajribalarga tayanish lozimligini ta`kidlagan. Ayrim mamlakatlarda bayon va insho yozish mezonlari ishlab chiqilgani xususidagi ma`lumotlar qayd etilgan.

Yozma nutq ko`nikmalarini shakllantirish maktab davridan boshlanadi. Shuning uchun har tomonlama malakali, ma`naviy barkamol, axloqan yetuk mutaxassis-kadrlar tayyorlashga, yozma nutq me`yorlarini o`rgatishga maktab davridanoq e`tibor qaratish lozim.

Yozma ishlarga e`tibor faqatgina milliy pedagogik tajribada emas, xorij ta`limi va baholash tizimida ham kuzatiladi. Masalan, keng yoyilgan til o`qitish dasturlari hisoblangan IELTS, TOEFL tizimlarida 60 daqiqalik umumiy mavzuda esse yoki insho yozish, 50 daqiqa mobaynida o`qiganlari va eshitganlari bo`yicha savollarga javob tarzida asoslab berish talablari berilgan.

Kadrlar tayyorlash - mamlakat taraqqiyotidagi muhim masala. O`zbekiston buyuk kelajak sari intilayotgan ekan, shu kelajak egalarini - yetuk mutaxassis-kadrlarni tayyorlash masalasi ijtimoiy siyosiy ahamiyat kasb etadi. Har tomonlama bilimli, malakali, muayyan tajribaga ega bo`lgan, nutq madaniyati talablarini to`liq o`zlashtirgan, og`zaki va yozma nutqi ravon mutaxassis-kadrlar tayyorlashda an`anaviy milliy pedagogika hamda rivojlangan davlatlarning ilg`or tajribasidan, eng so`nggi zamonaviy yutuqlaridan umumlashtirgan holda foydalanish maqsadga muvofiq.

Maktab rivojining barcha bosqichlarida bolalarning mustaqil tuzgan ijodiy yozma ishlariga alohida ahamiyat berilgan. Maktablar yangi, o`quvchilar nutqini o`stirish, aqliy, ijodiy o`sishiga mo`ljallangan dasturga o`tishi munosabati bilan uning ahamiyati yanada o`sdi.

Ijodiy yozma ishlar ona tili darslari samaradorligini ijobiy tomonga ta'sir qilishning eng qulay usulidir. Sinfda va sinfdan tashqari o`qish darslari boshlang`ich sinflarda o`tiladigan barcha predmet dasturlarining bo`limlari bilan bevosita bog`liq. Ona tili darslarida o`tilgan mavzular assosida badiiy kitoblar axtarish, asar qahramonlarining nomlarini yozish, ularni tasvirlab berish, ijodiy rasm ishlash, fikrni yakunlash uchun mos maqollar yod olish ko`nikmalarini shakllantirish dolzarb metodik manba ekanligini aniqlash, ularning didaktik asosini belgilash ham mashg`ulotning predmeti hisoblanadi.

Ijodiy yozma ishlarni tashkil etish va o`rgatish jarayonida o`quvchilarda mavzuni tushunish va yoritish, o`z inshoini aniq fikrga bo`ysundirish, material to`plash, uni tartibga solish va joylashtirish, reja tuzish va reja asosida yozish, mazmunga va nutq vaziyatiga mos ravishda til vositalaridan foydalanish, yozgan inshosini takomillashtirish ko`nikmalarini hosil qilinadi. Bulardan tashqari, «texnik» vazifalar ham amalga oshiriladi, ya`ni matnni yozishda imloviy va husnixatga doir matnni abzaslarga bo`lish, xat boshidan yozish, hoshiyaga rioya qilish kabi talablarga ham amal qilinadi.

Ijodiy yozma ishlar material manbaiga, mustaqillik darajasiga, tayyorlash usuli, janri va til xususiyatiga qarab tasnif qilinadi.

Tilda leksik (so‘z), sintaktik (so‘z birikmasi va gap) va bog‘lanishli nutq saviyalari ajratiladi. Shu mazmunda so‘z birikmasiga leksik saviyadan sintaktik saviyaga o‘tish halqasi sifatida qaraladi.

So‘z birikmasi leksik-grammatik birlik bo‘lib, tugallangan fikr ifodalamaydi va bu bilan gapdan farqlanadi. So‘z birikmasi nutqda gap ichida ishlataladi. Bolalarga so‘z birikmasini o‘rgatish fikr elementi ustida ishlash hisoblanadi. [20] Boshlang‘ich sinflarda so‘z birikmasi ustida ishlashda quyidagi mashq turlaridan foydalaniladi:

1. Bosh so‘zdan ergash so‘zga so‘roq berish, so‘zlarning o‘zaro bog‘lanishini aniqlash. Masalan, Anvarjon yaxshi o‘qiydi. Kim (o‘qiydi)? – Anvarjon. (Anvarjon) nima qiladi? – o‘qiydi. Qanday (o‘qiydi)? – yaxshi. Yaxshi o‘qiydi – so‘z birikmasi.

2. Gapda so‘zlarning o‘zaro bog‘lanishini chizmada ko‘rsatish. Bu o‘quvchilarni asta-sekin murakkab qurilmalarni tuzishga o‘rgatadi. Masalan:

Terimchi	_____	terdi	gullar	_____	ochildi
	↗ ↘		↑		↑
	paxtani	mashinada	har xil		Gulzorda

Terimchi paxtani mashinada terdi.

Gulzorda har xil gullar ochildi.

3. Matnda uchragan so‘z birikmasining ma’nosini tushuntirish.

4. Matnda yoki faoliyat jarayonida uchragan yangi so‘z bilan so‘z birikmasi tuzish. Mashqning bu turi so‘zning ma’nosini chuqr tushunishga va undan o‘z nutqida foydalanishga yordam beradi.

5. So‘z turkumlarini o‘rganish bilan bog‘liq holda so‘z birikmasi tuzdirish. Ot so‘z turkumi o‘tilganda, ot va sifat bilan (*jonajon Vatanim*), ot va boshqa ot bilan (*maktab bog‘i*); fe’l o‘tilganda, ot va fe’l bilan (*kinoga bordi, maktabda bo‘ldi, uydan keldi, kitobni o‘qidi*) so‘z birikmalari tuzdiriladi. [20]

So‘z birikmasi tuzishda yo‘l qo‘ylgan xato gap tuzishda ham xatoga olib keladi, shuning uchun uning oldini olish kerak.

Masalan:

O‘quvchi nutqida uchraydi:

maktabga bo‘ldim

T o‘g‘r i s i:

maktabda bo‘ldim

maktabni bog'i

maktabning bog'i

Bolalar ko'proq xatoga yo'l qo'yadigan so'z birikmalarini yig'ib borish xatoning oldini olishga qaratilgan mashqlar tuzishga imkon yaratadi. So'z birikmasi ustida ishlash grammatik, imloviy va boshqa mashqlarni to'g'ri bajarishga xizmat qiladi. Shuning uchun so'z birikmasi ustida o'rni bilan maqsadga muvofiq ishlab borish orqali gap va bog'lanishli nutq tuzishga oid nutqiy mashqlarga o'tish lozim.

Gapni o'qish va kuzatish nutq o'stirishga katta yordam beradi. Gap intonatsiyasi ustida ishlash gap mazmunini va bog'lanishini tushunishga, namunaga qarab, uni o'zlashtirish va yodda saqlashga, gap qurilishini yaxshi tushunishga yordam beradi. Bu jarayonda nutqdan gapni intonatsiyaga qarab ajratishga, intonatsion tugallanganlikni ifodalashga, darak, so'roq va his-hayajon gaplarning intonatsiyasiga, uyushiq bo'lakli gaplar va bog'lovchisiz qo'shma gaplardagi sanash ohanggiga, bog'langan qo'shma gap intonatsiyasiga e'tibor berish kerak.

Yozma ishlar o'quvchidan faollik, qiziqish, fikr bildirishni talab qiladi. Material tayyorlash, uni tartibga solish, insho kompozitsiyasi va rejasi haqida o'ylash, logik bog'lanishni belgilash, so'z, so'z birikmasini tanlash, gap tuzish va uni o'zaro bog'lash, imloni tekshirish kabi barcha murakkab ishlar o'quvchidan aqliy kuchini to'la ishga solish bilan birga, o'z ma'naviy faoliyatini boshqarish ko'nikmasini ham talab etadi.

Yozma ijodiy ishlar yozishga o'rgatish jarayonida o'quvchilarda mavzuni tushunish va yoritish, o'z ijodini aniq fikrga bo'ysundirish, material to'plash, uni tartibga solish va joylashtirish, reja tuzish va reja asosida yozish, mazmunga va nutq vaziyatiga mos ravishda til vositalardan foydalanish, yozganlarini takomillashtirish ko'nikmalari hosil qilinadi. Bulardan tashqari, «texnik» vazifalar ham amalga oshiriladi, ya'ni matnni yozishda imloviy va husnixatga doir matnni abzastlarga bo'lish, xat boshidan yozish, hoshiyaga rioya qilish kabi talablarga ham amal qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Yo'ldoshev J. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2004.

31.10.2024, UNITED KINGDOM

<https://conferencea.one>

2. G'afforova T. Boshlang'ich ta'limdi zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Tafakkur, 2011. – 160 b.
3. Ziyodova T. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish. Ona tili o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma/ Toshkent: O'qituvchi, 2001. – 80 b.
4. R. Safarova. Nutqiy ko'nikmalarni tekshirish asoslari. //Boshl. ta'l. jurnali. Toshkent, 2018. №5.
5. Hamroyev.A. Boshlang'ich sinfda o'quvchilar ishini ijodiy tashkil etish.T.2007
6. Musharraf, A. (2023). BOSHLANGAN SINF O'QUVCHILARIGA SO'ZLAR MANOSINI TUSHINTISH METODIKASI. Ustozlar uchun , 24 (3), 10-13.
7. Abdulxayeva, M. U. (2024). TIL VA NUTQ HAQIDA OLIMLARNING FIKRLARI. Экономика и социум, (5-1 (120)), 32-35.
8. Abdulxayeva, M., & Mukhtaram, I. (2024, may). ERTAKLARI-AJODALARIMIZNING TA'LIMLARI VA NASILLARI. Xalqaro global konferensiyada (1-jild, 7-son, 125-128-betlar).
9. Abdulxayeva, M. va Umidaxon, M. (2024, may). BOSHLANGICH SINFLARDA XALQ OG'ZIQ IJODINING AHAMIYATI. Xalqaro global konferensiyada (1-jild, 7-son, 129-132-betlar).
10. Abdulxayeva, M., & Gulchiroy, M. (2024, May). IKKI NUQTA VA UNING QO'LLANILISH O'RINLARI. In International Global Conference (Vol. 1, No. 7, pp. 66-68).
11. Abdulxayeva, M., & Umidaxon, A. (2024, May). BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH. In International Global Conference (Vol. 1, No. 7, pp. 69-74).
12. Umidaxon, A. (2023). BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING BILIMLARINI BAHOLASHDA MANTIQIY MASALALARING O'RNI. Ustozlar uchun, 24(3), 17-24.

13. Musharraf, S. M. K. A., & Baydemir, H. (2024, May). VERGUL VA UNING USTIDA MASHQLAR. In International Global Conference (Vol. 1, No. 7, pp. 121-124).
14. Musharraf, A. (2023). ONA TILI VA O'QISH SAODATI DARSLARIDA DIDAKTIK USULLARNING O'RNI. Ochiq kirish ombori , 9 (11), 105-108.
15. Musharraf, A. (2023). BOSHLANGANCHI SINFLARDA TURLI USULLARDAN FOYDALANGAN DIKTATLAR OLİSH METODIKASI. Galaxy xalqaro fanlararo tadqiqot jurnali , 11 (11), 887-891.
16. Абдулхаева, М., & Эргашалиева, С. (2023). РОЛЬ «УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ СКАЗОК» НА УЧЕБНЫХ УРОКАХ. Talqin va tadqiqotlar, 1(20).
17. Abdulhayeva, M. (2023). EDUCATIONAL DICTATION AND ITS TYPES.
18. Musharraf, A. (2023). EDUCATIONAL DICTATION AND ITS TYPES. Open Access Repository, 9(6), 211-216.
19. Abdulxayeva, M. (2023). AKTdan foydalangan holda diktant olish metodikasi. Scienceweb academic papers collection.
20. Abdulxayeva, M. (2023). O'Z DIKTANT YOKI YODDAN YOZUV DIKTANTI. Interpretation and researches, 1(1).
21. Mirhojiddinovna, JD, Shavkatovna, AM, & Alijonovna, MD (2022). Badiiy matnlardagi noan'anaviy birikmalar va qishloq xo'jaligi atamalarining lingupoetik xususiyatlari. Pozitiv maktab psixologiyasi jurnali , 6 (11), 1599-1604.
22. Abdulxayeva, M. Birinchi sinf o'quvchilarining yozma nutqini rivojlantirishda diktantning o'rni. Fan, muhandislik va texnologiya sohasida innovatsion tadqiqotlar xalqaro jurnali .
23. Musharrafa, A. va Nozima, NM (2023). Ona tili va o'qish savodxonligining tabiatshunoslik bilan aloqasi.
24. Abdulxayeva, M. (2023). ONA TILI VA O 'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA DIDAKTIK METODLARNING TUTGAN O 'RNI. Scienceweb academic papers collection.

